



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

## **THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE TEXTILE INDUSTRY**

**Xudoynazarov Olim Xayrullayevich**

Financial Manager RDB GROUP LLC

**Abstract:** This thesis examines the theoretical and methodological foundations for improving the economic efficiency of the textile industry. The study analyzes the concept of economic efficiency and its relationship with production costs, labor productivity, capital return, export potential, value added, and innovation-driven development. The textile industry plays a significant role in Uzbekistan’s economy by supporting employment, developing manufacturing capacity, increasing export revenues, and accelerating regional industrialization. Therefore, economic efficiency in this sector should not be assessed only through profit or production volume, but also through resource utilization, value-added output, production cost, labor productivity, technological renewal, and environmental sustainability.

**Keywords:** textile industry, economic efficiency, production cost, labor productivity, value added, resource efficiency, export potential, industrial competitiveness.

## **TEKSTIL SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

**Muallif: Xudoynazarov Olim Xayrullayevich**

Tashkilot: "RDB GROUP" MChJ, moliya menejeri.

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy-metodologik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uning ishlab chiqarish, xarajatlar, mehnat unumdorligi, kapital qaytimi, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanish bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Tekstil sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotida bandlikni ta’minlash, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

eksport tushumlarini ko‘paytirish va hududiy sanoatlashuvni jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni faqat foyda yoki ishlab chiqarish hajmi orqali emas, balki resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot qo‘shilgan qiymati, ishlab chiqarish tannarxi, mehnat unumdorligi, texnologik yangilanish va ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari orqali kompleks baholash zarur.

**Kalit so‘zlar:** tekstil sanoati, iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish tannarxi, mehnat unumdorligi, qo‘shilgan qiymat, resurs samaradorligi, eksport salohiyati, sanoat raqobatbardoshligi.

**Аннотация:** В данном тезисе освещаются теоретико-методологические основы повышения экономической эффективности в текстильной промышленности. В исследовании анализируется понятие экономической эффективности, ее аспекты, связанные с производством, затратами, производительностью труда, возвратностью капитала, экспортным потенциалом и инновационным развитием. Текстильная промышленность играет важную роль в обеспечении занятости в экономике Узбекистана, развитии перерабатывающей промышленности, увеличении экспортных поступлений и ускорении региональной индустриализации. Поэтому необходимо комплексно оценивать экономическую эффективность в этой отрасли не только через прибыль или объем производства, но и через уровень использования ресурсов, добавленную стоимость продукции, себестоимость производства, производительность труда, технологическое обновление и экологическую устойчивость.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, экономическая эффективность, себестоимость производства, производительность труда, добавленная стоимость, ресурсная эффективность, экспортный потенциал, промышленная конкурентоспособность.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**Kirish**

Zamonaviy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlariga bog‘liq [1].

O‘zbekiston sharoitida tekstil sanoati milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda tarmoqda ishlab chiqarish quvvatlari kengayishi, eksport geografiasining diversifikatsiyalashuvi, paxta-to‘qimachilik klasterlarining shakllanishi va tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish jarayonlari kuzatilmoqda. Rasmiy axborotlarda tekstil mahsulotlari eksporti mamlakat tashqi savdosida sezilarli ulushga ega ekani, tarmoqda yuz minglab ish o‘rinlari shakllangani qayd etiladi [2;3]. Bu holat tekstil sanoatini nafaqat sanoat ishlab chiqarishi, balki bandlik, investitsiya, hududiy rivojlanish va eksport siyosati bilan bog‘liq strategik soha sifatida o‘rganishni talab qiladi.

Shu bilan birga, tekstil sanoati oldida bir qator metodologik va amaliy muammolar mavjud. Birinchidan, ko‘plab korxonalarda iqtisodiy samaradorlik hali ham asosan ishlab chiqarish hajmi yoki yalpi foyda orqali baholanadi. Bunday yondashuv tarmoqdagi real samaradorlikni to‘liq ochib bermaydi. Chunki ishlab chiqarish hajmi oshgan taqdirda ham, agar tannarx yuqori, energiya sarfi ko‘p, mehnat unumdorligi past yoki eksport tarkibida past qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi katta bo‘lsa, bunday o‘shish barqaror samaradorlikni anglatmaydi [4].

Ikkinchidan, tekstil sanoatida resurslardan foydalanish, texnologik yangilanish, sifat menejmenti, ekologik talablar va xalqaro standartlarga moslashuv iqtisodiy samaradorlikning ajralmas omillariga aylanmoqda. Sanoat rivojlanishiga doir xalqaro tadqiqotlarda yangi ishlab chiqarish modeli resurs samaradorligi, barqarorlik, innovatsiya va texnologik modernizatsiya bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi [5; 6]. Demak, tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy-



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

metodologik asoslari ko‘p omilli, tizimli va dinamik yondashuvni talab etadi. Endilikda samaradorlik nafaqat ko‘p ishlab chiqarish, balki yuqori qiymat yaratish, kam chiqindi bilan ishlab chiqarish, bozorga tez moslashish va raqobatbardosh mahsulot taklif qilish orqali baholanadi [7; 8].

Tekstil sanoati misolida bu holat ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Demak, tarmoq samaradorligini oshirishning eng muhim nazariy asoslaridan biri qiymat zanjiri bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilishdir [9; 10]. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda metodologik aniqlik muhim ahamiyatga ega. Chunki noto‘g‘ri tanlangan ko‘rsatkich korxonaga yoki tarmoq faoliyati haqida noto‘g‘ri xulosa chiqarishga olib keladi. Tekstil sanoatida samaradorlikni kompleks baholash uchun ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, yalpi foyda, sof foyda, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, asosiy kapital qaytimi, energiya sarfi, eksport ulushi, tayyor mahsulotlar ulushi, qo‘shilgan qiymat darajasi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘lami kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq [11; 12].

**1-jadval. Tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari**

Baholash yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni
Ishlab chiqarish samaradorligi	Mahsulot hajmi, quvvatlardan foydalanish darajasi	Korxonaga mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan qay darajada foydalanayotganini ko‘rsatadi
Xarajatlar samaradorligi	Tannarx, energiya va xomashyo sarfi	Resurslardan oqilona foydalanish hamda ortiqcha xarajatlarni



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**


		kamaytirish imkonini baholaydi
Mehnat samaradorligi	Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, ish vaqti unumdorligi	Mehnat resurslarining natijadorligini ifodalaydi
Kapital samaradorligi	Asosiy vositalar qaytimi, investitsiya rentabelligi	Texnologik bazaning iqtisodiy natijaga ta‘sirini ko‘rsatadi
Eksport samaradorligi	Eksport hajmi, eksportda tayyor mahsulot ulushi	Tarmoqning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ochib beradi
Innovatsion samaradorlik	Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, sifat menejmenti	Korxonaning texnologik yangilanish orqali samaradorlikka erishishini baholaydi
Barqarorlik samaradorligi	Suv, energiya, chiqindi va ekologik talablar	Uzoq muddatli raqobatbardoshlik hamda yashil ishlab chiqarish salohiyatini ko‘rsatadi

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, tekstil sanoatida samaradorlikni bitta ko‘rsatkich orqali baholash yetarli emas. Masalan, rentabellik yuqori bo‘lishi mumkin, ammo mahsulot tarkibida tayyor kiyim-kechak ulushi past bo‘lsa, tarmoqning uzoq muddatli eksport salohiyati cheklangan bo‘lib qoladi. Yoki ishlab chiqarish hajmi oshishi



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

mumkin, lekin energiya sarfi va chiqindi miqdori ham ortsa, bu ekologik va iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi [7].



### **1-rasm. Tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikning nazariy modeli**

1-rasmda tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlik uchta asosiy blok orqali shakllanishi ko‘rsatilgan: resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi va bozor natijalari. Agar korxonalar resurslarni tejasa, lekin bozorga past qiymatli mahsulot chiqarsa, yakuniy samaradorlik yetarli bo‘lmaydi. Aksincha, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tsa-yu, tannarxni nazorat qila olmasa, raqobatbardosh narx taklif qilish qiyinlashadi. Demak, samaradorlik har doim tizimli yondashuvni talab etadi.

Metodologik nuqtayi nazardan tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni umumiy tarzda iqtisodiy natija va sarflangan resurslar nisbatida ifodalash mumkin. Bu yerda iqtisodiy natija sifatida mahsulot hajmi, qo‘shilgan qiymat, foyda yoki eksport tushumi olinishi mumkin. Sarflangan resurslar esa xomashyo, mehnat, kapital, energiya, suv va vaqt xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Biroq tekstil sanoati uchun eng to‘g‘ri metodologik



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

yondashuv bitta formula bilan cheklanmasdan, ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanishdir [6]. Ammo klaster samarali ishlashi uchun u faqat tashkiliy birlashma bo‘lib qolmasligi, balki real iqtisodiy integratsiya, shaffof hisob-kitob, texnologik hamkorlik va bozor talabiga moslashuv asosida faoliyat yuritishi kerak [2; 13].

O‘zbekiston tekstil sanoati uchun muhim masalalardan biri eksport tarkibini o‘zgartirishdir. Tekstil eksportida ip-kalava va tayyor tekstil mahsulotlari asosiy ulushni egallashi tarmoqda ishlab chiqarish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda [10; 11]. Chunki ip-kalava eksporti xomashyoni qayta ishlashning nisbatan dastlabki bosqichi bo‘lib, yakuniy mahsulot, uy tekstili, texnik tekstil, dizaynerlik mahsulotlari va brendlangan eksport mahsulotlariga nisbatan pastroq iqtisodiy qiymat yaratadi.



**2-rasm. Tekstil sanoatida qo‘shilgan qiymat zanjiri**

2-rasm tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqarish zanjirining yuqori bosqichlariga ko‘tarilish zarurligini ko‘rsatadi. Tarmoqda qiymat yaratish darajasi har bir bosqichda ortib boradi. Oddiy xomashyo eksporti kam qiymat yaratsa, tayyor mahsulot, dizayn, brend va eksport savdo kanallari yuqori iqtisodiy natija beradi. Demak, nazariy-metodologik jihatdan tekstil sanoati samaradorligi ishlab chiqarish chuqurligi bilan bevosita bog‘liq [13; 15].

Jahon tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, tekstil sanoatida raqobatbardoshlik faqat arzon ishchi kuchi yoki xomashyo mavjudligi bilan belgilanmaydi. Bugungi kunda xalqaro bozorda sifat, tez yetkazib berish, ekologik standartlarga moslik, sertifikatlash, dizayn, raqamli savdo va brend ishonchliligi muhim omilga aylangan [9; 14]. Bu esa



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

tekstil korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ishlab chiqarish hajmini emas, balki texnologik, ekologik va bozor omillarini birgalikda hisobga olish zarurligini anglatadi.

Tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikka ta’sir qiluvchi eng muhim omillardan biri mehnat unumdorligidir. Mazkur tarmoqda bandlik yuqori bo‘lgani sababli inson kapitalining sifati, kasbiy malaka, texnologik ko‘nikmalar, ishlab chiqarish intizomi va boshqaruv madaniyati natijadorlikka bevosita ta’sir qiladi. Agar korxonada yangi uskunalar mavjud bo‘lsa-yu, xodimlar ulardan samarali foydalana olmasa, investitsiya kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun tekstil sanoatida samaradorlikni oshirishning metodologik modelida inson kapitali alohida blok sifatida qaralishi lozim [4].

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy tekstil korxonalarida ERP tizimlari, ishlab chiqarishni raqamli monitoring qilish, avtomatik bichish uskunalari, sifat nazoratining sensorli tizimlari, ombor hisobini avtomatlashtirish, energiya sarfini real vaqt rejimida kuzatish kabi yechimlar xarajatlarni kamaytiradi va qarorlar sifatini oshiradi. Bunday texnologiyalar dastlab investitsiya talab qilsa-da, uzoq muddatda tannarxni pasaytirish, nuqsonlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va buyurtmalarni tez bajarish imkonini beradi [8].

O‘zbekiston sharoitida tekstil sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha davlat siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Tarmoq bo‘yicha ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, klasterlarni rivojlantirish, tayyor mahsulot ulushini ko‘paytirish kabi vazifalar tarmoq oldiga sifat jihatidan yangi talablarni qo‘ymoqda [11; 12]. Bunday maqsadlar tekstil sanoatida ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish bilan birga, samaradorlik, mahsulot tarkibi, eksport geografiyasi va texnologik yangilanish masalalarini ham dolzarb qiladi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**3-jadval. Tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning metodologik  
yo‘nalishlari**

Yo‘nalish	Mazmuni	Amaliy natija
Qo‘shilgan qiymatni oshirish	Ip-kalavadan tayyor mahsulot va brendlangan mahsulotga o‘tish	Eksport tushumi va foyda marjasi oshadi
Tannarxni optimallashtirish	Energiya, suv, xomashyo va logistika xarajatlarini kamaytirish	Mahsulot raqobatbardosh narxda ishlab chiqariladi
Mehnat unumdorligini oshirish	Kadrlar malakasi, texnologik intizom va avtomatlashtirish	Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi ortadi
Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy uskunalar va raqamli boshqaruv tizimlari	Sifat va ishlab chiqarish tezligi oshadi
Eksport diversifikatsiyasi	Yangi bozorlar, sertifikatlash, xalqaro standartlar	Tashqi bozordagi barqarorlik kuchayadi
Barqaror ishlab chiqarish	Resurs tejankor va ekologik texnologiyalar	Uzoq muddatli raqobatbardoshlik shakllanadi

Yuqoridagi jadval tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bir martalik tadbir emas, balki tizimli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayon nazariy jihatdan ishlab chiqarish nazariyasi, resurslar samaradorligi, qiymat zanjiri, raqobat ustunligi,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

innovatsion rivojlanish va institutsional iqtisodiyot yondashuvlariga tayanadi. Metodologik jihatdan esa ko‘rsatkichlar tizimi, omillar tahlili, qiyosiy baholash, dinamik tahlil, rentabellik tahlili, xarajatlar tahlili va samaradorlik indekslaridan foydalanishni talab qiladi [5; 6].

Nazariy-metodologik jihatdan muhim xulosa shundan iboratki, tekstil sanoatida samaradorlikning asosiy manbalari faqat sex yoki ishlab chiqarish liniyasi ichida shakllanmaydi. U butun qiymat zanjiri bo‘ylab, ya’ni xomashyo xarididan tortib yakuniy iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan jarayonda yuzaga keladi. Shu sababli tarmoqni rivojlantirish strategiyalarida korxonalararo kooperatsiya, klasterlar samaradorligi, logistika infratuzilmasi, eksport platformalari, elektron tijorat va xalqaro standartlarga moslashuv kabi masalalar ham samaradorlik metodologiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi faqat korxonada foydasini ko‘paytirish yoki ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilan cheklanmaydi. U resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot tannarxini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, kapital qaytimini kuchaytirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, texnologik modernizatsiya va ekologik barqarorlikni ta’minlash kabi ko‘p qirrali omillar bilan bog‘liq.

Nazariy-metodologik jihatdan tekstil sanoati samaradorligini baholashda kompleks yondashuv zarur. Bunda rentabellik, tannarx, mehnat unumdorligi, eksport hajmi, tayyor mahsulot ulushi, resurs sarfi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ekologik ko‘rsatkichlar yagona tizimda tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, O‘zbekiston tekstil sanoati uchun qiymat zanjirining yuqori bosqichlariga o‘tish, ya’ni ip-kalava



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

eksportidan tayyor mahsulot, brendlangan mahsulot va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar eksportiga o‘tish strategik ahamiyatga ega.

Shuningdek, tekstil korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun boshqaruv qarorlari ilmiy asoslangan bo‘lishi zarur. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikning asosiy manbalari ishlab chiqarish jarayonida emas, balki butun qiymat zanjiri bo‘ylab shakllanadi. Xomashyoni tanlash, texnologiyani yangilash, xodimlar malakasini oshirish, sifatni nazorat qilish, logistika xarajatlarini kamaytirish, dizayn va brend yaratish, eksport bozorlarini tanlash — bularning barchasi umumiy iqtisodiy natijaga ta’sir etadi.

Demak, tekstil sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy-metodologik asoslari quyidagi xulosaga olib keladi: samaradorlik natija va xarajatlar o‘rtasidagi oddiy nisbat emas, balki resurs, texnologiya, inson kapitali, bozor, innovatsiya va institutsional muhit o‘rtasidagi uyg‘unlik natijasidir. Shu bois dissertatsiya doirasida mazkur mavzuni chuqur o‘rganish tekstil sanoatini barqaror, raqobatbardosh va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqqa aylantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Porter, M. E. (1985). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press.
2. Porter, M. E. (1990). *The competitive advantage of nations*. Free Press.
3. Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development*. Harvard University Press.
4. Drucker, P. F. (2007). *Management: Tasks, responsibilities, practices*. Transaction Publishers.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

5. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The balanced scorecard: Translating strategy into action. Harvard Business School Press.
6. Coelli, T. J., Rao, D. S. P., O'Donnell, C. J., & Battese, G. E. (2005). An introduction to efficiency and productivity analysis (2nd ed.). Springer.
7. United Nations Industrial Development Organization. (2024). Industrial development report 2024: Turning challenges into sustainable solutions. UNIDO.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). OECD science, technology and innovation outlook 2023. OECD Publishing.
9. International Textile Manufacturers Federation. (2024). Progress report 2024. ITMF.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik axborot. Toshkent.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2025). Tekstil sanoatida yil yakunlari va ustuvor vazifalar muhokamasi. Toshkent.
12. Kun.uz. (2025). Uzbekistan sets UZS 147 trillion output target for textile industry. Kun.uz English.
13. Gereffi, G. (1999). International trade and industrial upgrading in the apparel commodity chain. *Journal of International Economics*, 48(1), 37–70.
14. Abernathy, F. H., Volpe, A., & Weil, D. (2006). The future of the apparel and textile industries: Prospects and choices for public and private actors. *Environment and Planning A*, 38(12), 2207–2232.
15. Tokatli, N. (2008). Global sourcing: Insights from the global clothing industry. *Journal of Economic Geography*, 8(1), 21–38.